




**Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**  
(2021- yil yanvar-oktabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalaridan 11088,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 116,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,3 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**  
sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 18,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 3,7 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining-39,3 % ga kamayganligi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9235,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,3 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,6 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida - 2,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (7,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 14,5 % (11,9 %) va quyi texnologiyalisi - 78,5 % (78,3 %) ni tashkil etdi.

## Yuqori texnologiyali




## O'rta-yuqori texnologiyali



## O'rta-quyi texnologiyali



## Quyi texnologiyali






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,9 % (2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,2 % (2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,2 % (2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 128,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,3 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 62,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %) ni tashkil etdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da**

2021-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 40,9 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 161,3 % ga o'sgan), 52,2 ming tonna omuxta yem (-1,1 %) ishlab chiqarilib o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Yumshoq bug'doy va spelta uni**

**Paxta tolasi**

**Omuxta yem**

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	25,3	40,9	15,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	267,2	0	-267,2
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0	0	0
Vino, ming litr	609,1	0	-609,1
Un, ming tonna	122,9	118,3	-4,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	13,5	10,3	-3,2



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1673,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (15,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga ortganligi kuzatildi.



**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

( yil boshidan I- X oylar, % da )







**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	4151,8	5542,0	1390,2
Issqlik energiyasi, ming gkal	67,5	60,9	-6,6



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 128,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.


**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
*( yil boshidan I- X oylar, % da )*
**2020- yil % da**

**2021- yil % da**



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	38,4	66,8	28,4
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	4,1	9,7	5,6
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	20,7	19,3	-1,4
To'qimachilik chiqindilari, tonna	9,0	34,0	25,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 74,0 % ga, oqava suvlarni shlami 2,4 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 6,8 % ga kamayganligi kuzatildi.




**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**













Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6112,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 55,1 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 46,0 % ni, shuningdek, Namangan tumani 8,3 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,7 % ni, Kosonsoy tumani 6,5 % ni, Chust tumani 6,4 % ni, Uchqo'rg'on tumani 5,0 % ni hamda Pop tumani 3,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (151,1 %), Uychi (139,5 %), Kosonsoy (136,9 %), Chortoq (127,8%), Chust (122,4 %), Namangan shahar (121,2 %) tumanlarida qayd etildi.














**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	
	2 811,1	46,0	121,2	<b>Namangan sh.</b>		472,7	7,7	151,1
					<b>To'raqo'rg'on</b>			
	260,7	4,3	73,7	<b>Mingbuloq</b>		255,6	4,2	139,5
					<b>Uychi</b>			
	399,7	6,5	136,9	<b>Kosonsoy</b>		302,6	5,0	101,2
					<b>Uchqo'rg'on</b>			
	509,8	8,3	98,6	<b>Namangan</b>		208,0	3,4	127,8
					<b>Chortoq</b>			
	103,2	1,7	119,6	<b>Norin</b>		392,4	6,4	122,4
					<b>Chust</b>			
	222,6	3,6	100,3	<b>Pop</b>		173,5	2,8	115,7
					<b>Yangiqo'rg'on</b>			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 45,3 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 10,8 % ni, Kosonsoy tumani 9,0 % ni hamda Chust tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (165,0 %), Kosonsoy (140,4 %), Pop (125,3 %) hamda Chust (123,4 %) tumanlarida qayd etildi.




**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Namangan sh.</b>	1 784,5	45,3	119,7	<b>To'qaqo'rg'on</b>	426,7	10,8	165,0
	201,6	5,1	61,1	<b>Uychi</b>	134,8	3,4	85,8
<b>Mingbuloq</b>					90,8	2,3	84,3
	354,8	9,0	140,4	<b>Uchqo'rg'on</b>			
<b>Kosonsoy</b>					272,0	6,9	96,7
	272,0	6,9	96,7	<b>Namangan</b>			
<b>Namangan</b>					94,7	2,4	101,6
	56,8	1,4	111,9	<b>Chortoq</b>			
<b>Norin</b>					319,0	8,1	123,4
	104,5	2,7	125,3	<b>Chust</b>			
<b>Pop</b>					99,9	2,5	113,9
				<b>Yangiqo'rg'on</b>			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 47,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,0 % ni, Uchqo'rg'on tumani esa 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (250,0 %), Chortoq tumani (163,0 %) hamda Uychi tumanida (153,1 %) qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
*(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Namangan sh.</b>	1026,6	47,4	124,0	<b>To'qaqo'rg'on</b>	46,1	2,1	84,9
<b>Mingbuloq</b>	59,1	2,7	250,0	<b>Uychi</b>	120,8	5,6	153,1
<b>Kosonsoy</b>	44,9	2,1	113,9	<b>Uchqo'rg'on</b>	211,8	9,8	110,7
<b>Namangan</b>	237,9	11,0	101,0	<b>Chortoq</b>	113,3	5,2	163,0
<b>Norin</b>	46,4	2,1	130,6	<b>Chust</b>	73,4	3,4	118,4
<b>Pop</b>	118,0	5,4	85,2	<b>Yangiqo'rg'on</b>	73,5	3,4	118,2















**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2604,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	<b>Viloyat</b>									
	<b>11 088,8</b>			<b>100,0</b>			<b>116,8</b>			
	4 432,3	40,0	111,7		1 940,8	17,5	123,7	<b>Namangan sh</b>		
	452,4	4,1	105,6		730,6	6,6	109,4	<b>To'raqo'rg'on</b>		
	415,8	3,8	120,1		693,7	6,3	98,6	<b>Mingbuloq</b>		
	688,8	6,2	104,3		226,3	2,0	105,8	<b>Uchqo'rg'on</b>		
	394,9	3,6	109,4		580,5	5,2	122,4	<b>Namangan</b>		
	347,4	3,1	103,8		185,3	1,7	114,2	<b>Norin</b>		
	<b>Pop</b>			<b>Yangiqo'rg'on</b>						




**Hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To'raqo'rg'on (2020- yil yanvar-oktabr oylariga

nisbatan 123,7 %), Kosonsoy (120,1 %), Chust (117,3 %), Yangiqo'rg'on (114,2 %) hamda Namangan (111,7 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

## Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,0 % i) hamda To'raqo'rg'on (17,5 %), Uychi (6,6 %), Uchqo'rg'on (6,3 %) va Namangan (6,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,7 %) hamda Chortoq (2,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (8438,1 ming so'm), Namangan shahrida (6809,3 ming so'm), Uchqo'rg'on (3942,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3835,9 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (828,7 ming so'm), Chortoq (1111,2 ming so'm), Pop (1549,3 ming so'm) va Kosonsoy (1937,5 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.




## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 835,9	2 114,3
<b>Viloyat</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	6 809,3	4 318,6
<b>Namangan sh</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	8 438,1	2 055,3
<b>To'raqo'rg'on</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 495,1	2 014,5
<b>Mingbuloq</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 339,2	1 168,4
<b>Uychi</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 937,5	1 862,2
<b>Kosonsoy</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 942,5	1 719,6
<b>Uchqo'rg'on</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	3 800,0	2 812,6
<b>Namangan</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 111,2	1 021,3
<b>Chortoq</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 361,2	617,3
<b>Norin</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 141,4	1 447,6
<b>Chust</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 549,3	992,8
<b>Pop</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	828,7	775,7
<b>Yangiqo'rg'on</b>		







**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5233,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqoʻrgʻon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Uychi (73,9 %) va Kosonsoy (69,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichkina ulush Toʻraqoʻrgʻon (15,0 %), Uchqoʻrgʻon (15,2 %), Chust (40,2 %) va Mingbuloq (42,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7472 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2825 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 579 tasi (7,7 %) Uychi tumaniga, 576 tasi (7,7 %) Chust tumaniga, 557 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 540 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 486 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1466 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 422 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 28,8 %) Namangan shahrida, 129 tasi (8,8 %) Norin tumanida, 118 tasi (8,0 %) Namangan tumanida, 116 tasi


(7,9 %) Chust tumanida, 110 tasi (7,5 %) To'raqo'rg'on tumanida hamda 106 tasi (7,2 %) Uychi tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari**  
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 847 ta), Uychi (579 ta), Chust (576 ta), Kosonsoy (557 ta), Namangan (540 ta), To'raqo'rg'on (486 ta) tumanlari qayd etildi.

**Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi**  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi**  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021-yilning 1- noyabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (201 ta), Pop (296 ta), Chortoq (321 ta), Yangiqo'rg'on (329 ta), Uchqo'rg'on (345 ta) hamda Norin (395 ta) tumanlari qayd etildi.

Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (69) 227-84-80